

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02. RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

TANIRBERGENOV SULTANBEK BAZARBAYEVICH

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING EKOLOGIK
QONUNCHILIGINING RIVOJLANISHI**

12.00.01. – Davlat va huquq nazariyasi va tarixi. Huquqiy ta’limotlar tarixi

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Nukus shahri – 2025-yil

UO‘K: 349.6 (575.172)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Tanirbergenov Sultanbek Bazarbayevich

Qoraqalpog‘iston Respublikasining ekologik qonunchiligining rivojlanishi.....4

Танирбергенов Султанбек Базарбаевич

Развитие экологического законодательства в Республике Каракалпакстан....26

Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich

Development of environmental legislation in the Republic of Karakalpakstan.....51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....56

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02. RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

TANIRBERGENOV SULTANBEK BAZARBAYEVICH

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING EKOLOGIK
QONUNCHILIGINING RIVOJLANISHI**

12.00.01. – Davlat va huquq nazariyasi va tarixi. Huquqiy ta’limotlar tarixi

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Nukus shahri – 2025-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.4.PhD/Yu323 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://karsu.uz/uz/авропедепар/>) va «ZiyoNET» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Umarova Karligash Umarovna
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tulyaganov Abdumannop Abdujabbarovich
yuridik fanlar doktori, professor

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich
yuridik fanlar nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (+99861) 223-60-49, faks: (+99861) 223-60-49, E-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan (Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (+99861) 223-60-49; faks: (+99861) 223-60-49).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “___” _____ dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

E.D.Kutibaeva

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

G.M.Berdimuratova

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

I.T.Tulteev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash huzuridagi bir martalik Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solish muammolari bir necha o‘zaro bog‘liq darajalarga ega: global-jahon, mintaqaviy va mahalliy. Insoniyatning ekologik muammolari 1972-yilda BMTning atrof-muhit muammolari bo‘yicha 1-xalqaro konferensiyasida ko‘rsatib o‘tilgan. Dunyoning barcha davlatlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqlarini ta‘minlash va mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishdir. Iqlim o‘zgarishi, chuchuk suv tanqisligi, ozon qatlamining yemirilishi, global isish natijasida ko‘plab ekologik muammolar yuzaga kelmoqda.

Jahonda ekolog olimlar tomonidan amaldagi ekologik qonunchilikning samaradorligini aniqlash, ilmiy asoslangan qonun loyihalarini tayyorlash, ekologik qonun normalarini amalga oshirishning ta‘sirchan mexanizmlarini aniqlash, atrof-muhitni muhofaza qilishni samarali huquqiy tartibga solish, fuqarolarning ekologik huquqlarini ta‘minlash, axborot texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganishga qaratilgan maqsadli tadqiqotlar to‘xtatilmayapti.

O‘zbekiston Respublikasining ekologik qonunchiligida ekologik qonunchilikni takomillashtirish bilan bog‘liq masalalar to‘liq ishlab chiqilmagan, shuningdek, ekologik inqiroz oqibatlarini yumshatish va bartaraf etish mexanizmlarini belgilovchi, kompleks fanlararo yondashuvni o‘z ichiga olgan normalar mavjud emas. Statistik axborotga ko‘ra, 2018-yilda respublika bo‘yicha atmosfera havosiga chiqarilgan jami ifloslantiruvchi moddalar miqdori 2,492 mln tonnani tashkil etdi, shuning qariyb 63 foizi ko‘chma manbalar hissasiga to‘g‘ri keladi¹. Ta‘kidlash joizki, bugungi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasida mavjud muammolarni hal qilishning huquqiy asoslarini yaratishi mumkin bo‘lgan ekologik vaziyat bo‘yicha kompleks tadqiqotlar yetarli emas.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (01.05.2023), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi (09.04.1993), O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. (09.12.1992), Qoraqalpog‘iston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. (03.03.2006), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni (30.10.2019), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni (11.09.2023), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi farmoni (21.02.2024) va mavzuga oid boshqa normativ hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг атроф мухитни муҳофаза қилиш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони. ПФ-5863-сон 30.10.2019 йилда қабул қилинган// [Электрон манба] - URL: <https://lex.uz/docs/4574008> (мурожаат қилинган вақт 28.12.2022).

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston Respublikasida D.Jalilov, U.B.Bozorov, Y.O.Jo‘rayev, M.B.Usmonov, J.T.Xolmo‘minov, Sh.X.Fayziyev, S.S.Hamroyev, U.T.Ayubov, N.K.Skripnikov, I.A.Cherkashina, M.M.Nurmatov, O.X.Narzullayev, D.I.Safarov kabi mamlakatimiz ekolog huquqshunos olimlarining ilmiy ishlarida O‘zbekistonda ekologik siyosat, o‘simlik va hayvonot dunyosidan foydalanish va muhofaza qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishning huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda ekologik qonunchilikni tizimlashtirish masalalari o‘z ifodasini topgan.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va davlatning ekologik funksiyasini takomillashtirishning ilmiy jihatlari “Davlat va huquq nazariyasi” fani doirasida Z.M.Islomov, O‘.X.Muhamedov, M.K.Najimov, X.T.Odilqoriyev, O.T.Husanov, A.S.Pigolkin, N.P.Koldayeva, A.B.Vengerov, V.V.Lazarev, A.V.Mitskevich, M.N.Marchenkolarning asarlarida muayyan darajada o‘rganilganligini qayd etish lozim.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida Q.R.Babanazarov, O.D.Utegenov, A.O.Jumanov kabi ekolog-huquqshunos olimlarining ilmiy ishlarida jamoat ekologik nazorat, suv resurslaridan oqilona foydalanishning huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda ekologik qonunchilik masalalari o‘z ifodasini topgan.

Ekologik qonunchilikni takomillashtirish masalalari MDH ekolog-huquqshunos olimlari V.I. Andreytsev, S.A.Bogolyubov, M.M.Brinchuk, A.K.Golichenkov, O.L.Dubovik, I.O.Krasnova, V.V.Petrov, A.S.Shesteryuk, Y.S.Shemshuchenko, D.A.Baydeldinov, V.A.Gulyayevlarning asarlarida o‘rganilgan.

Shu bilan birga, yuqorida qayd etib o‘tilgan olimlarning ilmiy izlanishlarida Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik qonunchilik muammolari maxsus ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. O‘z navbatida, yuqorida sanab o‘tilgan ilmiy ishlar, monografiyalar va dissertatsiyalardagi nazariy qoidalar, amaliy takliflar tadqiq etilayotgan muammoni yoritish uchun muhim ilmiy-nazariy asos bo‘lib hisoblanishini qayd etish joiz.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, «Davlat boshqaruvi va axborot jamiyatining barcha sohalarini rivojlantirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish yo‘llari» mavzusidagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qoraqalpog‘iston Respublikasining ekologik qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan tavsiya va takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ekologik qonunchiligiga umumiy tavsif berish;

O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi ekologik qonunchiligining vujudga kelishi va rivojlanish jarayonini ko‘rsatib berish;

ekologik qonunchiligi tushunchasi, mazmuni va mohiyatini ochib berish va ular yuzasidan mualliflik yondashuvlarini ilgari surish;

ekologik qonunchilikning maqsadi va vazifalarini ko‘rsatib berish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ekologik qonunchilik tizimini tahlil etish;

ekologik qonunchilikni amalga oshirish mexanizmlarini ko‘rsatib berish va ularni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

ekologik qonunchilik yuzasidan xalqaro tajribani o‘rganish va undan milliy qonunchilikni takomillashtirishda foydalanish yuzasidan tavsiyalarni ilgari surish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ekologik qonunchiligini takomillashtirish istiqbollari yuzasidan takliflar ishlab chiqish va boshqalar.

Tadqiqotning obyekti bo‘lib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi ekologik qonunchiligini takomillashtirish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar hamda ekologik qonunchilik tushunchasiga oid qarashlar hisoblanadi.

Tadqiqot **predmetini** O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikasining ekologiya sohasidagi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va huquqni qo‘llash amaliyoti, ilmiy-nazariy qarashlar hamda huquqiy kategoriyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni amalga oshirishda tizimlilik, muammoviy-maqсадli, statistik, qiyosiy-huquqiy, tarixiy-huquqiy, formal-yuridik, mantiqiy yondashuv va ilmiy bilishning boshqa usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ekologik nazorat sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlari bo‘lib Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi Qoraqalpog‘iston hududiy boshqarmasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘simliklar karantini hududiy inspeksiyasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi ekanliklari asoslantirildi;

yer munosabatlarini tartibga solish sohasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish bo‘yicha mintaqaviy dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish vakolatlari asoslantirildi;

yer umuman milliy boylik hisoblanib, undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan himoya qilinishi asoslantirildi;

davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarning qimmatbaho navlarini g‘ayriqonuniy ravishda kesganlik, yo‘q qilganlik uchun yuridik shaxslarga jarima tarzida moliyaviy sanksiya qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qilishi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ekologik qonunlar tizimining quyidagi sohalardagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar yig‘indisi sifatidagi ta‘rifi

shakllantirildi: tabiatdan oqilona foydalanish, atrof muhitni muhofaza qilish, o'z xavfsizligini ta'minlash, ekologik huquq-tartibotni saqlash;

ekologik-huquqiy prinsiplar ilmiy tizimlashtirildi va ularga rioya qilish zarurligi asoslandi. Qoraqalpog'iston Respublikasida ekologik huquqiy munosabatlarni tartibga solishning huquqiy vositalari va usullari tizimi sifatida ekologik-huquqiy mexanizmning konseptual modeli ishlab chiqilgan;

ekologik huquqbuzarliklar uchun yuridik javobgarlik tarkibini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar kompleksi ishlab chiqildi, jumladan: intizomiy, fuqarolik-huquqiy, ma'muriy, jinoiy javobgarlik;

yangi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish orqali qonunchilik bazasini rivojlantirish zarurati ilmiy asoslangan: "Ekologik sug'urta to'g'risida"gi, «ekologik fondlar to'g'risida»gi qonunlar. Soliq kodeksiga ekologik imtiyozlar va ekologik yo'nalishdagi korxonalar uchun imtiyozlar bo'yicha qo'shimchalar kiritildi;

iqtisodiy rag'batlantirish tamoyillarini takomillashtirish bo'yicha aniq takliflar shakllantirildi: ekologik xavfsiz texnologiyalardan foydalanish, ikkilamchi xom ashyodan foydalanish, resurslarni tejaydigan mahsulotlarni saqlash, ekologik tadbirkorlikni rivojlantirish.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishida keltirilgan nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalari Konstitutsiyalari va qonunlarini, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari amaliyotini tahlil qilish asosida ishlab chiqilganligi; tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, xalqaro tajriba va milliy qonunchilik normalarining o'zaro tahlil qilingan, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, natijalarning yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingani, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, undagi ilmiy-nazariy xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligi sohasida, mavzuga oid qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda va takomillashtirishda hamda sohaga oid fanlarni o'qitishda, o'quv va metodik qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ularning amaliyotga tatbiq etilishi mavzuga oid qonun hujjatlarini takomillashtirishga, ularning amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirishga, aholining huquqiy ongi va madaniyatini, shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va boshqa huquq ijodkorligi subyektlarining ekologik qonunchilikni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlari sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi takliflar ishlab chiqildi va joriy qilindi:

ekologik nazorat sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlari bo'lib Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi Qoraqalpog'iston hududiy boshqarmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi,

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘simliklar karantini hududiy inspeksiyasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi ekanliklari to‘g‘risidagi taklifi 2014-yil 30-sentyabrdagi “Ekologik nazorat to‘g‘risidagi”gi qonunning 11-moddasining 1-xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2024-yil 23-oktyabrdagi 03-03/25-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy qilinishi Qoraqalpog‘iston Respublikasining ekologik nazorat to‘g‘risidagi munosabatlarini tartibga solishda xizmat qilgan;

yer munosabatlarini tartibga solish sohasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish bo‘yicha mintaqaviy dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish vakolatlari to‘g‘risidagi taklifi 2006-yil 29-avgustdagi “Yer to‘g‘risida”gi qonunning 4-moddasining 1-xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2024-yil 23-oktyabrdagi 03-03/25-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy qilinishi Qoraqalpog‘iston Respublikasining yer to‘g‘risidagi munosabatlarini tartibga solishda xizmat qilgan;

yer umuman milliy boylik hisoblanib, undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan himoya qilinishi to‘g‘risidagi taklifi 2006-yil 29-avgustdagi “Yer to‘g‘risida”gi qonunning 15-moddasining 1-xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2024-yil 23-oktyabrdagi 03-03/25-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy qilinishi Qoraqalpog‘iston Respublikasining yer to‘g‘risidagi munosabatlarini tartibga solishda xizmat qilgan;

davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarning qimmatbaho navlarini g‘ayriqonuniy ravishda kesganlik, yo‘q qilganlik uchun yuridik shaxslarga jarima tarzida moliyaviy sanksiya qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qilishi to‘g‘risidagi taklifi 2019 yil 04-sentabrdagi “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunning 10-moddasining 5-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining Agrar, suv xo‘jaligi, tabiatni muhofaza qilish va ekologiya masalalari qo‘mitasining 2024-yil 01-iyuldagi 06-06/367-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy qilinishi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida sohasidagi vakolatlari kengaytirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining “Inson huquqlari, davlat huquqi va boshqaruv” kafedrasida, shuningdek, 3 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari hamda davra suhbatlarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Ilmiy tadqiqot mavzusi bo‘yicha 24 ta ilmiy ishlar, 13 ta maqola (Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan

jurnallarda 11 ta maqola, 2 ta maqola xorijiy jurnalda), 11 ta tezis (8 ta respublika va 3 ta xalqaro konferensiyalarda) joriy qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, yetti paragrafni o‘z ichiga olgan uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, uning hajmi 109 betni tashkil qiladi (foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalar bundan mustasno). Dissertatsiyada tadqiqot mavzusiga oid 200 ga yaqin adabiyotdan foydalanilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, uning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprotatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiya hajmi va tuzilishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik qonunchiligining rivojlanishining umumiy tavsifi”** deb nomlanib, uning **“Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik qonunchilikning vujudga kelishi va rivojlanishi”** nomli birinchi paragrafida O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik qonunchilikning vujudga kelishi va rivojlanishining nazariy asoslari o‘rganilgan. Ekologik qonunchilik rivojining zamonaviy bosqichi mustaqillik yillarida uzluksiz shakllanib, rivojlanib kelmoqda. U avvalambor, keng qamrovli iqtisodiy islohotlar, xususiylashtirish jarayonlari, jamiyatning barcha jabhalarini demokratlashtirish kabi holatlar bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu davrda mamlakatimizda ekologik qonunchilikning shakllanishiga tamal toshini qo‘ygan dastlabki muhim hujjatlar qabul qilindi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik qonunchilikning shakllanishi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va uning asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi bilan bog‘liq. Konstitutsiya yerni, suvni, o‘rmonlarni, yer osti boyliklarini umumiy milliy boylik deb e‘lon qildi. Konstitutsiya Qoraqalpog‘iston Respublikasi ekologik qonunchiligining asosi bo‘ldi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Yer to‘g‘risida”, “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”, “O‘rmon to‘g‘risida”, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”, “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”, “Chiqindilar to‘g‘risida”, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qoraqalpog‘iston Respublikasining Qonunlari qabul qilindi. Shu bilan birga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, unda tabiiy resurslarning milliy boylik ekanligi haqida gap ketadi, ammo ularning bugungi va kelajak avlod uchun zarur hayotiy manba ekanligiga e‘tibor berilmagan. Zero, fuqarolarning salomatligi ko‘p jihatdan

qulay atrof tabiiy muhitga bo'lgan huquqi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu jihatdan olganda, boshqa barcha sohalar uchun bo'lgan kabi ekologik qonunchilik uchun ham bosh manba bo'lgan konstitutsiyada fuqaroga atrof muhitga ehtiyotlilik bilan munosabatda bo'lish majburiyati bilan birga uning qulay atrof tabiiy muhitga bo'lgan huquqi ham o'z ifodasini topishi lozim degan fikrni ilgari surgan.

O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni sohadagi bosh qonunchilik hujjati bo'lib, ekologik qonunchilik tizimining yuqorisida turadi. 1992-yil 9-dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni mustaqillik sharoitida qabul qilingan ekologiya sohasidagi ilk kompleks qonunchilik hujjati bo'ldi. Shuningdek, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun bugungi kunda barcha ekologik-huquqiy munosabatlarni qamrab olishga hamda mamlakatimiz ekologik siyosatining siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-texnik mexanizmlarini muvofiqlashtirishga qodir emas. Chunonchi, unda bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etib borayotgan fuqarolarning ekologik huquqlari, ularni muhofaza qilish mexanizmi, ekologik axborot, ekologik ta'lim-tarbiya, ekologik muammolarni hal qilishda davlat organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlik masalalari, ekologik sug'urta, ekologik audit, ekologik halokat zonalari, ularning huquqiy maqomi, agroximikatlar, ekologik zararni qoplash kabi munosabatlar yetarli darajada tartibga solinmagan.

Mazkur Qonun nafaqat tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar mazmuniga ko'ra, balki huquqiy tartibga solish shakliga ko'ra ham kompleks hisoblanadi. Bu atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish normalari ekologik qonunchilik pog'onalarida markaziy o'rinni egallagani holda yakka emas, balki boshqa – ma'muriy, fuqarolik va h.k. huquq tarmoqlari normalari majmui bilan birgalikda amal qilishini anglatadi. Xususan, qonunning yetkazilgan zararni qoplashga oid normalari (49, 51-moddalar) fuqarolik huquqining qoidalari bilan yanada aniqlashtiriladi va h.k. Bunday normalarning mavjudligi ekologik qonunchilikni qonunchilikning boshqa tarmoqlari bilan aloqasini ta'minlaydi.

Ushbu sohada hozirgacha ekologik munosabatlarni kompleks tartibga soluvchi kodifikatsion hujjat yoki qonunlar to'plami qabul qilinmagan. Bugungi kunda ekologiya muammolari bilan shug'ullanuvchi olimlarning asosiy e'tibori ularning kompleks yechimiga qaratilishi lozim. Shunday qilib, Qoraqalpog'iston Respublikasida 150 gektar maydonda to'plangan qattiq chiqindilar 879,05 ming tonnani tashkil etdi¹.

2023 yilda daraxtlarni kesish bilan bog'liq 2 mingdan ortiq qonunbuzarlik aniqlangan bo'lib, umumiy zarar miqdori 3,6 milliard so'mni tashkil etgan. Xususan, 2023 yilning birinchi yarim yilligida mamlakatimizda daraxt va butalarni noqonuniy kesish bilan bog'liq jami 2000 dan ziyod huquqbuzarlik holatlari qayd etilgan. Bu qonunbuzarliklar natijasida yetkazilgan zarar 3,6 milliard so'mdan oshgan. Aniqlangan huquqbuzarliklar yuzasidan 7 ta jinoyat va 2055 ta ma'muriy ish qo'zg'atilgan hamda 1,7 milliard so'm miqdoridagi zarar undirib olingan².

¹ <https://www.iisd.org/system/files/2024-02/uzbekistan-state-of-the-environment-ru.pdf> (мурожаат қилинган вақт 12.06 2024).

² <https://eco.gov.uz/ru/site/news?id=3377> (мурожаат қилинган вақт 12.06 2024).

Qoraqalpog‘iston sudlaridagi ishlarning 2022 yildagi statistikasini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, jinoyat sudida Jinoyat kodeksining 195-moddasi bo‘yicha 1 ta jinoyat ko‘rilgan, atrof tabiiy muhit ifloslanishi oqibatlarini bartaraf etish choralarini ko‘rmaslik, hayvonot yoki o‘simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzganlik uchun (O‘zR JK 202-moddasi) 8 ta ish ko‘rib chiqildi va 26 nafar fuqaro javobgarlikka tortildi¹.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi **“Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik qonunchilik tushunchasi, mazmuni va mohiyati”**, deb nomlangan. Mazkur bobda tabiatni muhofaza qilish qonunchiligi tushunchasi, mazmuni va mohiyati, ekologik qonunchilik maqsadi va mohiyati tahlil qilindi. Bunda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish qonunchiligi tushunchasi, mazmuni va mohiyati borasidagi o‘zbek va xorijiy huquqshunoslarning Sh.X.Fayziyev, B.V.Yerofeyev, A.Nigmatov, O.I.Krassov, M.M.Brinchukning fikrlari atroflicha tahlil qilindi. Natijada, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish qonunchiligi tushunchasi mazmuni va mohiyatiga quyidagicha ta’rif berildi: ekologik huquq va ekologik qonunchilik - bir biriga ko‘lami bo‘yicha ham mos qilmaydigan har xil huquqiy hodisa. Ekologik qonunchilik tushunchasiga yangi ma’no kiritish zarur: uni qonun chiqaruvchi aktlar tizimi sifatida qarash kerak. Ekologik qonunchilik tushunchasi yuzasidan berilgan turli xil yondashuvlarni umumlashtirgan holda unga quyidagi ta’rifni berish mumkin: “Qoraqalpog‘iston Respublikasining ekologiya sohasidagi qonunchiligi – bu belgilangan tartibda qabul qilingan, yuridik texnika talablariga javob bera oladigan va ekologik munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarning mustaqil turidir”.

Birinchi bobning **“Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik qonunchilikning maqsadi va vazifalari”**, deb nomlangan uchinchi paragrafida ekologik qonunchilikdagi maqsad va vazifalari tahlil qilindi.

Ekologik qonunchilik tizimida asosiy normativ-huquqiy hujjat sifatida e’tirof etiladigan O‘zbekiston Respublikasi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining “Tabiatni muhofaza qilishdan maqsad” deb nomlangan 3-moddasida aynan ushbu qonunning maqsadi emas, balki umuman tabiatni muhofaza qilishdan ko‘zlangan maqsad yo‘nalishlari haqida so‘z boradi. Ekologik qonunchilik tizimiga atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bilan bog‘liq boshqa qator qonun hujjatlari ham kirishini e’tiborga oladigan bo‘lsak, qonunchilik texnikasi nuqtai-nazaridan ushbu qonunning mazkur moddasida umuman tabiatni muhofaza qilishdan maqsad emas, balki aynan “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunning maqsadi haqida gap ketishi lozim edi. Zero, “amaliy” normalar muayyan huquqiy munosabatlarni to‘liq tartibga solishga yo‘naltirilmagan, aniq maqsadni qo‘ymasdan, ya’ni natija, so‘nggi holatni aniqlamasdan, samarali harakat qila olmaydi. Aksincha bo‘ladigan bo‘lsa, huquqiy tartibga solishning mazmuni huquqni qo‘llash uchun noaniq va bu boradagi harakatlar nomuvofiq bo‘lib qoladi.

Ekologik qonunchilikning maqsadini aniqlash va tahlil qilish asnosida quyidagi bir qator umumiy xulosalarni ilgari surish mumkin:

¹ 22.02.2023 йилги №04-23/1-506-23 Қорақалпоғистон Республикаси суди раиси тамонидан берилган маълуматнома.

Birinchi dan, yuqoridagilardan ham ko‘rinib turibdiki, ekologik qonunchilikda quyilgan maqsadlarning aksariyati umumiy xususiyatga ega. Bunday umumiy maqsadlar Qoraqalpog‘iston Respublikasining ekologik qonunchiligiga ham xosdir. Shu bilan birga, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning har bir sohasi o‘zining aniq bir yo‘nalishi doirasida belgilangan maqsadlarni ko‘zlaydi.

Ikkinchi dan, sifatli ekologik qonun ekologik qonunlarning amaliy ta‘siri to‘g‘risidagi ishonchli ilmiy ma‘lumotlarga asoslanishi kerak, Nukus shahrida yashovchi 500 nafar fuqaroning sotsiologik so‘rov natijalari esa tabiatni muhofaza qilish qonunlarini bilish darajasini ko‘rsatdi:

Bilim darajasi	Odamlar soni	Foiz
Qonunlarni bilishmaydi	385	77%
Umumiy tushunchaga ega	95	19%
Qonunlarni yaxshi bilishadi	20	4%

Ekologik axborotga bo‘lgan ehtiyoj

Axborot turi	Qiziqqanlar (kishi)	Foiz
Ichimlik suvi sifati	475	95%
Havo sifati	460	92%
Tuproqning holati	395	79%
Radiatsiya foni	415	83%

Tadqiqot ishining **“Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik qonunchilikni amalga oshirish mexanizmi”**, deb nomlangan ikkinchi bobi ikki paragrafdan iborat.

Ekologik huquq tizimida tabiatni muhofaza qilish normalarining samarali implementatsiyasini ta‘minlaydigan va ekologik sohada huquqiy nigilizmning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan kompleks ekologik-huquqiy mexanizm shakllanishi kerak.

Ushbu mexanizm quyidagi o‘zaro bog‘liq komponentlarni birlashtiradi:

1. Davlat ekologik siyosati tabiatni muhofaza qilishni tartibga solishning tizim hosil qiluvchi elementi sifatida;

2. Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida jamoatchilik konsensusini shakllantirish uchun asos sifatida sotsiumning ekologik huquqiy ongi o‘z ichiga quyidagilarni olgan normativ-huquqiy baza sifatida:

- huquqni qo‘llashning aniq belgilangan mexanizmlari;
- tabiiy obyektlarga salbiy ta‘sirni qoplashning iqtisodiy vositalari;
- ekologik yo‘naltirilgan tadbirkorlikni rag‘batlantirish;
- ekologik huquqbuzarliklar uchun yuridik javobgarlik tizimi;
- ekologik nazorat va nazorat metodologiyasi.

Shu tariqa huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma‘muriy mexanizmlarni birlashtiruvchi ekologik huquq-tartibotni ta‘minlashning yaxlit tizimi shakllantiriladi.

Bizning fikrimizcha, ekologik qonunchilik tizimi - atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq jarayonlarda paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan qonunchilik hujjatlari yig'indisidan iboratdir. Ikkinchi bobda ekologik qonunchilikni amalga oshirish mexanizmi ham tahlil qilingan.

Ekologik qonunchilikni tizimlashtirish kontekstida huquqiy tartibga solish obyektlarining (fauna, flora, yer qa'ridan foydalanish, suv resurslari, o'rmon fondi, atmosfera havosi va tabiiy muhitning boshqa komponentlari) sezilarli darajada farqlanishi sababli yagona konsolidatsiyalashgan hujjat formatidagi kodifikatsiyalash uslubiy jihatdan maqsadga muvofiq emas.

Quyidagilarni ta'minlaydigan ekologik qonun hujjatlarining tarkibiy tuzilmasini shakllantirish ushbu holatda eng maqbul yechim hisoblanadi:

- huquqiy tartibga solishning tizimli birligi;
- normativ qoidalarning ichki muvofiqligi;
- maxsus tabiat-resurs aktlari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish;
- turli tabiiy obyektlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
- atrof-muhitning alohida tarkibiy qismlarini tartibga solishda tarmoq avtonomiyasini saqlab qolish.

Bunday yondashuv huquqiy tartibga solishning zarur ixtisoslashuvini saqlab qolgan holda ekologik qonunchilikning samarali iyerarxik tizimini shakllantirish imkonini beradi.

Ushbu bobning **“Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik qonunchilikni amalga oshirish mexanizmining tavsifi”**, deb nomlangan birinchi paragrafida ekologik qonunchilik tizimi va mexanizmida yuridik-texnik normalarning o‘rni va ahamiyatini o‘rganishning dolzarbligi quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, milliy huquqiy tizimni shakllantirish jarayonida yuridik-texnik normalar bilan bog'liq masalalarga yetarli darajada e'tibor berilmasligi hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini zamon talablari asosida rivojlantirilmasligi, o'z navbatida, insonning tabiat, texnika va boshqa sun'iy obyektlar bilan munosabatlarida va ulardan samarali xavfsiz foydalanish tizimini tashkil etishda muayyan nomuvofiqliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Ikkinchidan, XXI asrning boshlarida tabiatda ro'y berayotgan global o'zgarishlar hamda texnogen xarakterdagi xalokatlarning tez-tez ro'y berayotganligi ijtimoiy texnik munosabatlarning barcha subyektlari zimmasiga jiddiy mas'uliyat yuklaydi. Mazkur subyektlarning tabiatda va ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan faoliyatlari sifati va samaradorligini oshirish, tabiiy va sun'iy obyektlar bilan munosabatda bo'lishning eng oqilona usullari va vositalarini, shu jumladan, texnologik operatsiyalarning izchilligini ta'minlash va samarali boshqarish tizimlarini ishlab chiqish bu borada fundamental ilmiy hamda amaliy tadqiqotlarni talab etadi.

Uchinchidan, huquq tizimida yuridik-texnik normalarning o'zini va ahamiyati bilan bog'liq masalalar Sobiq Ittifoq davrida sanoqli olimlar tomonidan o'rganilgan. Bunda ilmiy izlanishlar asosan o'sha davr voqeligidan kelib chiqib olib borilgan.

Tabiatdan oqilona foydalanish hamda ishlab chiqarishda xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq masalalar tabiiy va texnik fanlar doirasida muayyan darajada o'rganilib kelinayotgan bo'lsada, yuridik-texnik normalarning milliy huquq tizimidagi o'rni, xuquqiy tabiati, maqomi va ularni yaratish borasidagi huquq ijodkorligining nazariy-huquqiy jihatlari yuzasidan kompleks monografik tadqiqotlar milliy huquqshunoslik fanimizda bugungi kungacha amalga oshirilmagan.

Ekologik qonunchilikni amalga oshirishning tashkiliy mexanizmiga keladigan bo'lsak, u o'z mazmuni bo'yicha ekologik boshqarishdan iboratdir. Shu jihatdan olganda, Qoraqalpog'iston Respublikasining ekologik qonunchiligi tizimiga kiruvchi barcha qonun hujjatlarini tahlil qiladigan bo'lsak, bunda bu boradagi boshqaruv organlarining ro'yxati qat'iy tarzda belgilanmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni ekologik boshqaruvni amalga oshiruvchi davlat organining umumiy nomini ko'rsatib o'tadi, ya'ni "atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasida maxsus vakolatli davlat organlari". Ko'rinib turibdiki, bunda qaysi davlat organlari haqida gap ketishi aniq o'z ifodasini topmagan. Bunday yondashuvni boshqa ekologik qonunchilik hujjatlarida ham ko'rishimiz mumkin. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunida suv fondidan foydalanish va muhofaza qilishni boshqarish maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshirilishi (8-modda), "O'rmon to'g'risida"gi Qonunda o'rmon xo'jaligini boshqarish davlat organi tomonidan amalga oshirilishi haqida so'z boradi (11-modda). Lekin, ekologik qonunchilik tizimiga kiruvchi boshqa qonun hujjatlarida bu boradagi davlat boshqaruv organlarining ro'yxati aniq berilgan. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasiga muvofiq atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi Qoraqalpog'iston Respublikasining Vazirlar Kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasining Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladi, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasiga muvofiq hayvonot dunyosidan foydalanish va muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi Qoraqalpog'iston Respublikasining Vazirlar Kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasining Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi tarkibidagi o'rmon xo'jaligi boshqarmasi va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladi, deb belgilab qo'yilgan.

Dissertantning fikricha, Qoraqalpog'iston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuniga, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonuniga, "O'rmon to'g'risida"gi Qonunga davlat boshqaruv organlarining ruyxatini aniq kiritish lozim deb hisoblaydi.

Hududi ekologik ofat zonasi deb e'tirof etilgan Qoraqalpog'iston Respublikasining ekologik qonunchiligini amalga oshirish mexanizmlarini tahlil

qilish asosida uni takomillashtirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlariga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. Normativ-huquqiy bazani optimallashtirish:

- mavjud huquqiy kolliziyalar va bo‘shliqlarni bartaraf etish;
- ekologik qonunchilikning protsessual komponentini modernizatsiya qilish;
- xalqaro ekologik standartlarni implementatsiya qilish.

2. Iqtisodiy-huquqiy mexanizmlarni rivojlantirish:

- tabiatdan oqilona foydalanish tizimini takomillashtirish;
- ekologik xavfsizlikni ta‘minlashning innovatsion vositalarini joriy etish;
- samarali kompensatsiya mexanizmlarini shakllantirish.

3. Tashkiliy-huquqiy mexanizmni modernizatsiya qilish:

• ekologik huquqbuzarliklar sohasidagi profilaktik chora-tadbirlarni optimallashtirish;

- huquqbuzarlarni aniqlash metodologiyasini takomillashtirish;
- huquqni qo‘llash amaliyoti samaradorligini oshirish.

4. Yuridik javobgarlik tizimini isloh qilish:

- ekologik huquqbuzarliklar uchun sanksiyalarni kuchaytirish;
- javobgarlik shakllarini tabaqalashtirish;
- jazolarning preventiv funksiyasini kuchaytirish.

5. Ekologik-huquqiy madaniyatni rivojlantirish:

- ekologik ta‘limning kompleks tizimini shakllantirish;
- ekologik ma‘rifatni kuchaytirish;
- ekologik targ‘ibotning huquqiy asoslarini takomillashtirish.

6. Jamoatchilik ishtirokini faollashtirish:

- jamoat ekologik tashkilotlarining vakolatlarini kengaytirish;
- jamoatchilik ekologik nazorati mexanizmlarini rivojlantirish;
- tabiatni muhofaza qilish faoliyatida fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirish.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish Orolbo‘yi mintaqasining og‘ir ekologik holati va Orol dengizi ekologik halokatining salbiy oqibatlarini minimallashtirish zarurati kontekstida alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Atrof-muhit komponentlari holatining sifati haqidagi ilmiy ishonchli axborotning tanqisligini nafaqat sudlarga murojat qilishni ta‘minlash uchun bartaraf qilinishi, balki ekologik huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishni rag‘batlantirish uchun ham muhim, u aholining ekologik muhim yechimlarni qabul qilishda, jamoat nazoratini tashkillashtirishda ishtirokini nazarda tutadi. Ushbu vaziyatga bog‘liq tabiiy muhit sifati haqidagi ekologik normativlarni ishlab chiqish ustunligi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston ekologik qonunlarida atrof-muhit sifati normativlarining va atrof-muhitga yo‘l qo‘yilgan ta‘sir miqdori normativlarining aniq chegaralanishi mavjud emas. Atrof-muhit holati haqida axborotni olish va uni tarqatish O‘zbekiston Respublikasi “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi, Ekologik monitoring to‘g‘risidagi va boshqa qonunlariga muvofiq vakolatli organlarga yuklanadi. O‘zbekiston Respublikasi hududida tabiiy atrof-muhit va uning resurslari holatini kuzatish, hisobga olish, baholash va prognozini ta‘minlash maqsasida atrof-muhit davlat monitoringi tizimi yaratiladi.

Maxsus vakolatli organlar, shuningdek korxonalar, tashkilotlar va muassasalar tegishli davlat organlariga o‘z kuzatuvlari materiallarini bepul topshirishga majburdir. Bunday axborotni OAVda olish va nashr etish huquqiga jurnalistlar egadir. Ushbu qonunchilik ko‘rsatmalari tabiiy atrof-muhit sifati normativlari va standartlariga tegishli aniqlashtirishga muhtoj.

Ikkinchi bobning **“Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik qonunchilik tizimi”**, deb nomlangan ikkinchi paragrafida ekologik qonunchilik tizimi tushunchasining mazmun va mohiyatini tahlil etildi. Ekologik qonunchilik tizimi – bu atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, aholining ekologik xavfsizligini ta‘minlash bilan bog‘liq jarayonlarda paydo bo‘ladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan qonunchilik hujjatlari yig‘indisidan iboratdir.

Ekologik qonunchilikni qo‘llash jarayonida uning tizimlilikini inobatga olish bu boradagi muayyan bir huquqiy masalani hal etish yoki ishni ko‘rib chiqish uchun zarur bo‘lgan aniq bir normani topish va qo‘llash imkoniyati demakdir. O‘z-o‘zidan bunday normalar tizimlashtirilgan bo‘lib, u qonunchilikning muayyan tuzilmalariga joylashtirilgan bo‘ladi va bu ularni qidirib topish, amalga oshirish, bir so‘z bilan aytganda harakatga keltirish imkonini beradi.

Tadqiqot ishining **“Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik qonunchilikni takomillashtirish istiqbollari”**, deb nomlangan uchinchi bobida Qoraqalpog‘iston Respublikasi ekologik qonunchiligini takomillashtirishda xalqaro tajribaning roli, MDH davlatlari ekologik qonunchiligining konstitutsiyaviy asoslari va ulardan milliy qonunchilikni takomillashtirishda foydalanish masalalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish qonunchiligini takomillashtirish istiqbollari masalalari o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi. Bunda Qoraqalpog‘iston Respublikasida tabiatni muhofaza qilish qonunchiligini takomillashtirish shart-sharoitlari atroflicha tahlil qilindi. Bizning nazarimizda, ekologik qonunchilikni takomillashtirishda xalqaro shartnomalar va tajribaning roli katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Ekologik qonunchiligining formal kamchiligini - haddan tashqari normativligini bartaraf etish zarur. Bunda qonunchilik aktlari oldida xalqaro shartnoma qoidalari birinchiligi to‘g‘risidagi konstitutsion normasini ekologik qonunchilikda faqat atrof muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, tabiat resurslarini muhofaza qilish va oqilona foydalanish bo‘yicha munosabatlarni huquqiy tartibga solishda haqiqatdan mavjud bo‘lgan o‘zgachalikni qo‘llash kerak.

Ushbu bobning **“Qoraqalpog‘iston Respublikasining ekologik qonunchiligini takomillashtirishda xalqaro tajribaning roli”**, deb nomlangan birinchi paragrafida Qoraqalpog‘iston Respublikasining ekologik qonunchiligini takomillashtirishda amaldagi qonunlarning O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikalari Konstitutsiyalari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga mosligi, shuningdek, bu boradagi xalqaro konvensiyalar, shartnomalar va bitimlarda belgilangan umume‘tirof etilgan tamoyillarga muvofiq bo‘lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagilar bilan birga, rivojlangan davlatlarning tajribasini o‘rganish hamda uning ijobiy tomonlarini milliy qonunchilikka tadbiq etish mazkur sohani takomillashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ekologik qonunchilik va

xalqaro shartnomalarning yuridik tabiati nuqtai nazaridan o‘zaro munosabatlarni ko‘rib chiqishda quyidagi uch jihatga e‘tiborni qaratish lozim, deb hisoblaymiz: a) O‘zbekiston, xususan Qoraqalpog‘istonning ekologik huquq manbalari tizimiga xalqaro shartnomalarni kiritish tartib-tamoyillari; b) ekologik huquq manbalari iyerarxiyasida xalqaro shartnomalarning o‘rnini aniq belgilash bilan bog‘liq masalalar; v) atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga qaratilgan xalqaro huquq normalarini milliy ekologik qonunchilikka uyg‘unlashtirishning formal talablariga (yuridik texnika qoidalari) rioya qilish bilan bog‘liq masalalar.

Asosiy Qonunimizning 49, 62, 66, 68, 115 va 123-moddalarida tabiatni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarimizdan oqilona foydalanish bilan bog‘liq huquqiy qoida-talablar o‘z ifodasini topgan.

Xususan, “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar”, degan qoida Konstitutsiyamizning 62-moddasida mustahkamlangan. Konstitutsiyaning 66-moddasida mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart, deb belgilab qo‘yilgan. Ushbu moddada birinchidan, mulk huquqining mazmuni e‘tirof etilsa, ikkinchidan, mulkdan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslarning xo‘jalik va ishlab chiqarish jarayoni bevosita tabiat bilan bog‘liq ekanligi mustahkamlanadi. Zero, ko‘pchilik xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun yer ular joylashgan kenglik (joy)ni anglatasa, qishloq xo‘jalik korxonalarini uchun ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘liq biologik omildir. Tabiat resurslaridan foydalanish huquqi haqida gapirar ekanmiz, avvalo shuni anglab olishimiz kerakki, bu nafaqat foydalanish uchun berilgan huquq, balki ulardan oqilona, samarali foydalanish va uni muhofaza qilishni ta‘minlash majburiyatini ham yuklaydi. Boshqacha qilib aytganda, tabiat resurslaridan foydalanish huquqi va majburiyati o‘zaro chambarchas bog‘liqdir.

Ekologik qonunchilikni takomillashtirishda qonunchilik tizimining mazkur sohasini kodifikatsiyalash ham muhim o‘rin tutadi.

